

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI SAMARALI BOSHQARISH

M. X. Dustova

QarMII Moliya kafedrası katta o'qituvchisi

S. O. Shomurotova

QarMII talabasi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlar singari bozor iqtisodiyoti yo'lini o'ziga tanlab oldi. Bu iqtisodiy tizimda esa asosiy ro'l o'ynovchi moliyaviy institutlar, albatta, tijorat banklari hisoblanadi, chunki iqtisodiyotga, pul kredit tizimiga aynan tijorat banklari orqali ma'lim bir ta'sir o'tkazish mumkin. Kreditlash operatsiyalari esa tijorat banklarining eng asosiy, keng ko'lamda amalga oshiriladigan operatsiyasidir.

Ayniqsa bizning mamlakat bank amaliyotida kreditlash operatsiyalari banklarning asosiy daromad keltiruvchi operatsiyasi hisoblanadi, (banklarimizning daromadlari tarkibida kreditlash operatsiyalari va mablag'larni joylashtirishdan kelgan daromad ulushi 60% atrofida) Chunki mamlakatimizda fond bozori takomillashmagani bois banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalardan sezilarli daromad olishining hozirda imkoni mavjud emas. Bundan tashqari mamlakatimizda valyutaning boshqariladigan suzuvchi kurs rejimi o'rnatilgani bois tijorat banklarining valyutaviy operatsiyalardan ham u qadar keng foydalanilmaydi, bizning mamlakat bank va birja amaliyotida forvard, fyuchers, svop, opsiya kabi xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan valyutaviy bitimlar hozircha rivojlanmagan.

Tijorat banklarining to'g'ridan to'g'ri kreditlash amaliyoti borasida so'z boshlashdan avval ularning aktivlari holati va dinamikasiga nazar tashlash maqsadga muvofiq bo'ladi. 2020-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarini, shu jumladan, aholining bandligini ta'minlash va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun 281 mingdan ortiq loyihaga jami 48,4 trln. so'm kredit mablag'lari ajratildi.


Bozor munosabatlariga o'tgunga qadar bo'lgan davrda moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi faoliyat hisoblangan banklar va ular faoliyatidagi kreditlash asosan markazdan turib boshqarilish asosida amalga oshirilganligi tufayli, mablag'larni jalb etish, ularni foyda keladigan qilib pulga muhtoj xo'jalik sub'yektlariga berish, qarzni o'z vaqtida qaytishini ta'minlovchi chora - tadbirlar ko'rish kabi masalalarda bank xodimlarining boshlari og'rimagan. Mamlakatimizda farovon hayot sari qo'yilgan qadam, ya'ni pulga asoslangan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lida bank tizimida olib borilgan islohotlar natijasida bu masalalar banklarning kundalik faoliyatiga aylanib qoldi va bank xodimlarining vazifasi ortdi.

1-jadval Turon bank ATB Qarshi filiali va BXOlar kredit portfeli va daromad ko'rsatkichlari¹

T/r	Filial yoki BXO nomi	Kredit portfeli hajmi (mlrd so'm)	Daromad miqdori (taqribiy)
1	Turon bank ATB Qarshi filiali	8 mlrd	2,2 mlrd
2	Nasaf BXO	1,7 mlrd	0,7 mlrd
3	Kompleks BXO	1,1 mlrd	0,6 mlrd
4	Koson BXO	2,7mlrd	0,8 mlrd
5	Mirishkor BXO	3,1 mlrd	0,65 mlrd

Jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak hozirda Qashqadaryo Turon bank tizimida 5ta bank filiali va BXOlar faoliyat ko'rsatmoqda. Moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha Qarshi filiali (8 mlrd) yuqori o'rinda turibdi. Bunga sabab qilib shuni ko'rsatish mumkinki filial miqyosida muammoli kredit qoldiqlari juda kamdir. Qolgan barcha BXOlar ham hozirda daromad ko'rsatkichlariga ega bo'lib, daromadlar dinamikasi ular joylashgan hudud aholi soniga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

Ma'lumki, kredit amaliyotlaridan olingan foizli daromadlar bank jami daromadining salmoqli hissasini tashkil etadi. Bank daromadining bu manbai kreditlash jarayonining qay darajada sifatli olib borilishiga bog'liq. Aynan shuning uchun ham, fikrimizcha, banklarda kredit munosabatlari yuzaga kelgan taqdirda tahlillarga asoslanib oqilona boshqaruv qarorini qabul qilish bank faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Chunki, kredit amaliyotlaridan olingan daromadlar tijorat banklari jami



daromadi tarkibida foizli daromad sifatida salmoqli hissa qo'shuvchi xizmat turi bo'lish bilan bir qatorda, bank daromadliligiga salbiy ta'sir etish doirasi yuqori bo'lgan amaliyot hamdir. So'ngi yillarda mamlakatimiz tijorat banklari amaliyotida asta-sekinlik bilan kreditlash

¹ Turon bank moliyaviy hisobotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

amaliyoti va kreditlash usullaridan kengroq foydalanish takomillashib bormoqda va zamonaviy kreditlash shakllaridan ham tijorat banklarimiz foydalanishni boshlamoqda.

2-jadval Turonbank ATB Qarshi filiali joriy kreditlar hajmida muammoli kreditlar miqdori²

T/r	Filial yoki BXO nomi	Tahlilga olingan yil	Berilgan kreditlar miqdori (mln so'm)	Jami kreditlardan muammoli kreditlar hajmi (mln so'm)	Muammoli kreditlarning kreditlar qoldig'idagi ulushi
1	Turon bank ATB	2019	24412	71,6	0,29
2	Qarshi filiali	2020	19175	24,1	0,13
3		2021	15744	22,3	0,14

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak Turonbank ATB Qarshi filialida muammoli kreditlar hajmi oydan oyga kamayib borayotganini ko'rish mumkin. 2019 yil holatida muammoli kreditlar hajmi 71.6 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2020 yilga kelib 24.1 mlnga so'mga kamaygan va muammoli kreditlar hajmida 0.13 foizni tashkil qilgan. Joriy yilga kelib berilgan kreditlar miqdori kamaygan bo'lsada, muammoli kreditlar hajmi 22.3 foizga oshgan va 0.14 foizni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich bilan Turonbank ATB Qarshi filiali hozirda barcha filiallar orasida eng yaxshi ko'rsatkichni qayd etib turibdi.

Har bir bank o'zining kredit tavakkalchiligini boshqarish siyosatini qo'llaydi, chunki bu tashkilotning raqobatdosh afzalligi. Hisob-kitoblar har xil usulda amalga oshiriladi. Kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan strategiya yangi mahsulotlar yoki xavfsizlik siyosati sohasidagi loyihalarga o'xshash bank sirini ham qamrab oladi. Mijozlar to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash xavflarni boshqarish siyosatining bir qismidir. Shu sababli, banklar ilgari kredit olish uchun murojaat qilgan xususiy va yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar bazalarini yaratishga harakat qilmoqdalar.

² Turon bank moliyaviy hisobotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.